



«KELISHILGAN»

**Buxoro viloyati sportni  
rivojlantirish bosh  
boshqarmasi boshlig'i**  
  
O. Nadjimiddinov  
«\_\_» \_\_\_\_\_ 2022 y.




«TASDIQLAYMAN»

**Buxoro viloyati  
hokim o'rinbosari**  
  
N. Hamdamov  
«\_\_» \_\_\_\_\_ 2022 y.





«KELISHILGAN»

**Buxoro viloyati hokimligi  
Yagona buyurtmachi xizmati  
Injiniiring kompaniyasi rahbari**  
  
F. Jalliev  
«\_\_» \_\_\_\_\_ 2022 y.



«KELISHILGAN»

**Buxoro viloyati  
Bosh arxitektori**  
  
Z. Muxiddinov  
«\_\_» \_\_\_\_\_ 2022 y.



## ISHCHI LOYIHANI ISHLAB CHIQISH UCHUN TOPSHIRIQ

**Buxoro tuman "Galaosiyo" MFY da joylashgan  
markaziy o'yingohni mukammal ta'mirlash.**

Buxoro shahar-2022yil

№	Asosiy ma'lumotlar va talablar	Asosiy ma'lumotlar va talablarning mazmuni.
1	Ob'ekt nomi.	Buxoro tuman "Galaosiyo" MFY da joylashgan markaziy o'yingohni mukammal ta'mirlash
2	Ob'ekt joyi	Buxoro tuman
3	Buyurtmachi	Buxoro Viloyati hokimligi huzuridagi yagona buyurtmachi xizmati-injining kompaniyasi
4	Qurilish turi	mukammal tamirlash
5	Moliyalashtirish manbai	Maxalliy byudjet mablag'lari
6	Qurilishni taxminiy bahosi	6.0 mlrd
7	Loyiha tashkiloti bosh loyihachi nomi	Tanlov savdolari (tender) orqali aniqlanadi
8	Pudrat tashkiloti	Tanlov savdolari (tender) orqali aniqlanadi
9	Ishlab chiqish uchun asoslar	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktyabrdagi PQ-408 sonli qaroriga asosan.
10.	Obyektning asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari, quvvati, unumdorligi, ishlab-chiqarish dasturi, shuningdek turar-joy yoki umumiy binolar, ularning vazifalari (qavatlar soni, sektsiyalar va kvartiralar soni, qabul qilish va sig'im qobiliyati)	Buxoro tuman "Galaosiyo" MFY da joylashgan markaziy o'yingohni mukammal ta'mirlash
11.	Arxitektura-qurilish, hajmli-rejalashtirish va konstruktiv yechimlar, blokirovkalash shartlari, binoning pardozlash talablar.	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Markaziy o'yingoh chimini (gazon) to'liq yangilash.</li> <li>- Markaziy o'yingoh yoritgichlarini (projector) yangilash.</li> <li>- Tribuna o'tirg'ichlarini (skameyka) yangilash</li> <li>- Tribuna tom qismi yangi engil konstruksiyali ayvon (naves), qalinligi t=5mm li profnastil qoplamasi bilan qoplash.</li> </ul> <p><b>Ma'muriy binoni mukammal ta'mirlash loyihasida quyidagilarni inobatga olish:</b></p> <p><b>Buzish ishlari.</b></p> <p>Bino uchun olingan texnik xulosaga asosan buyurtmachi bilan kelishilgan holda mavjud pol qismini tag asosigacha deraza va eshik romlarini ichki muhandislik tarmoqlarini buzib olish. Eski suv quvurlar va pardoz qoplamalarini ko'chirish hamda qurilish chiqindilarini olib chiqib ketish xarajatlarini hisobga olish (nuqsonli dalolatnoma bo'yicha).</p> <p><b>Barcha yog'och eshik va deraza romlarini almashtirish.</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-Yog'och eshik, derazalarni plastik profillarga almashtirish</li> <li>- Xonalarda kamida qalinligi 6.0mm va kengligi 0.7m, 0.9m va 1.2m MDF mahsulotidan tayyorlangan oynali deraza romlar</li> <li>- hojatxonalarda - Akfa eshik (матовый).</li> </ul> <p>Elektr shit xonasi - o'tga chidamli materialdan eshiklarni o'rnatish:</p>

		<p>- eshik qulflari zamonaviy, bardoshli va sifatli.</p> <p><b>Pollarni ta'mirlash.</b>  Pol yotqizish ishlarida:  - Yog'och pollardagi eski bo'yoqlarni tozalash va yangidan bo'yash 100%  -Eski pollarni yangilash.</p> <p><b>Pardoqlash ishlari</b>  - devorlar qisman suvoqlash, eski bo'yoqlarni tozalash, so'ngra suvli va yog'li bo'yoq bilan bo'yash  - shiftlar eski bo'yoqlarni tozalash, so'ngra suvli va yog'li bo'yoq bilan bo'yash  -yuvinish moslamalarini o'rnatishda bir butunli pol sathidan chiquvchi umivalniklardan foydalanish</p> <p><b>Tashqi devorlar .</b>  Tashqi fasadni qisman suvoqlash va so'ngra fasad bo'yoqlari bilan bo'yash (дождик).</p> <p><b>Texnik shartlarga muvofiq ichki muhandislik tarmoqlari va tizimlarini to'liq almashtirish</b>  - sovuq suv bilan ta'minlash. Ichki sovuq suv ta'minoti polipropilen asosidagi quvurlardan iborat bo'lishi kerak.  Sovuq va issiq suv iste'molchilariga quvur liniyalari va chiqish joylarini yotqizish devor ostida (kanallarida) yashiringan holda amalga oshirilishi kerak.  - issiq suv ta'minoti va isitish tizimi (buyurtmachi bilan kelishilgan holda individual modulli qozonxona o'rnatish). Bitta quvurli tizimni nasos o'rnatish bilan qo'llash. Quvur ichidagi suvning sovishini oldini olish uchun quvurlar issiqlik izolatsiyasini qo'llash. Quvurlar devor ostida (kanallarida) yashiringan holda amalga oshirilishi kerak.</p> <p><b>Radiatorlar biometrik.</b> Ichki oqava tizimi:  Ichki oqava tarmoqlari yuqori quvvat va gigienik xususiyatlarga ega bo'lgan PVX quvurlaridan tayyorlanishi kerak. Oqava quvurlarini shaxtalarga yotqizish. Oqava chiqadigan joyni tashqi oqava tarmog'iga ulash. Tiqilib qolishi mumkin bo'lgan, joylarda oqava quvurlarini qayta ko'rib chiqish va tozalash imkoniyatini ta'minlash.  - hojatxona xonalarida xonaning chekka burchagida nishab bilan trap o'rnatishni inobatga olish. Yuvinish moslamalarini o'rnatishda bir butunli pol sathidan chiquvchi umivalniklardan foydalanish.  - elektr ta'minoti tizimi mavjud va buyurtmachi bilan kelishilgan holda qo'shimcha rozetkalarini o'rnatish bilan, kalitlar (выключатель)ni pol sathidan 0.90 mm, rozetkani 0.40 m balandlikda o'rnatish;</p> <p><b>Tomni ta'mirlash.</b>  Tomni nuqsonlar dalolatnomasiga asosan ta'mirlash.  Yomg'ir suv lotoklarini yangilash  - Yomg'ir suv quvuri (водосток) - yomg'ir suv tarnovlari qoplamali ruxlangan metal quvurdan</p>
--	--	---

		drenaj tizimining yer osti drenajiga chuqurlashtirish zarur.
12	Muhandislik va texnologik asbob-uskunalar, texnologik jihozlarga qo'yiladigan talablar. Texnologik asbob-uskunalarining ro'yxati.	Talab etilmaydi
13	Loyihalash uchun buyurtmachi tomonidan taqdim etiladigan dastlabki ma'lumotlar tarkibi	Talab etilmaydi
14	Atrof muhit tabiatini qo'riqlash va saqlash bo'yicha talablar.	Talab etilmaydi
15	Smeta hujjatlarini tuzish usuliga talablar	Smeta hujjatlarini amaldagi me'yor va qoidalarga amal qilgan holda ishlab chiqilsin. Smeta hujjatlarini narxlarni amaldagi tartibda hisoblansin (katalog asosida) Taqdim etiladigan smeta hujjatlari tarkibi quidagilardan iborat: - Loyihalar - Jamlangan resurs vedemosti - Jamlangan resurs smetasi
16	Loyiha yechimlarini kelishishga qo'yiladigan talablar	Loyihalash tashkiloti loyihalash hujjatlarini barcha manfaatdor tashkilotlar, shu jumladan buyurtmachi bilan kelishish shart.
17	Favqulotda vaziyatlar oldini olish tadbirlarini ishlab chiqarish zarurati	Talab etilmaydi
18	Energiya samaradorligi.	Talab etiladi
19	Maxsus shartlar	Pudratchi ekspertiza davomida dizayn yechimlarini himoya qilishni ta'minlaydi. Ekspertiza xizmatlari uchun to'lovni Buyurtmachi ekspertiza organlari bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida amalga oshiradi.
20	Buyurtmachiga taqdim etiladigan hujjatlar	SHNK 1.03.01-08 va 2.9 "Binolar va inshootlarning kapital qurilishining tarkibi, ishlab chiqish tartibi loyiha hujjatlarini kelishish va tasdiqlash". - Ishchi loyiha, lokal va resurs - 3 nusxada. - Lokal va resurs smetalari elektron versiyasi (disk) bilan, (qog'oz variant 1- nusxada) Binolarni pardoqlashni (xonalar, koridorlar, musiqa zali, yo'lak, vestibul, sanitariya bo'linmasi)

**Buxoro Viloyati hokimligi huzuridagi  
yagona buyurtmachi xizmati-injiniring  
kompaniyasi vakili:**



**B. Xayitov**